

The role and significance of didactic in preschool educational organizations

Iglomova Dilnura Zokirovna, Imamova Nilufar Uktamovna
Chirchik State Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan.

Abstract: This article is aimed at teaching children with didactic games and developing didactics in preschool educational organizations.

Key words: didactic games, preschool education, pedagogy, university, parents.

Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida didaktikaning o`rni va ahamiyati

Ig'lomova Dilnura Zokirovna, Imamova Nilufar Uktamovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O'zbekiston.

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarga didaktik o`yinlar bilan ta`lim berish, didaktikani rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so`zlar: didaktik o`yinlar, maktabgacha ta`lim, pedagogika, universitet, ota-ona.

Bolalar nozik qalbli go`zal hilqat vakillaridir. Ular o`z dunyosining jazzi podshohlari, ularning dunyolarida faqat ezgulik, beg`uborlik mujassamlashgan. Ularni bir nihol desak, u niholni to`g`ri tekis qilib o`stirish tarbiyachilarning zimmasidagi muhim vazifalardandir. Ularga ta`lim berishda bizga didaktik o`yinlar yordam beradi. Didaktika (yunoncha didaktikos-„o`rgatuvchi“, „ta`lim beruvchi“) degan ma`noni anglatadi. Didaktika atamasi ilk bor Yevropada 17-asrda o`qitish va ta`lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo`llanila boshlagan. Bunga Ya.a. Komenskiyning „Buyuk didaktika“ asarida bolalar va o`smirlarga ta`lim berishni eng qulay va mohirona bajariladigan usullari haqida ma`lumot berilgan. Maktabgacha yosh davrining inson kamolotining keyingi rivojlanishdagi, bolani maktab ta`limiga tayyorlashdagi alohida roli maktabgacha ta`limning maqsadini belgilash, maktabgacha yoshdagi bolalarning o`qitish metodlari va tashkiliy shakillarini o`ziga xos mazmunini ishlab chiqishni, bolalarni har tomonlama voyaga yetkazishga o`qitishning o`ziga xos rolini bilish, muhim ahamiyatga egadir. Bu esa maktabgacha ta`limda didaktika sohasini yaratilishi va rivojlanishida asos bo`lib hizmat qildi. Maktabgacha ta`lim didaktikasi bu-umumiy didaktikaning sohasidir.

Maktabgacha ta`lim didaktikasi –maktabgacha yoshdagi bolalar ta`limi va o`qitish nazariyasi hisoblanib, uning maqsadini belgilaydi, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni maktabdagi o`qishga tayyorlashni ta`minlovchi ta`limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakillarini ishlab chiqadi. Demak maktabgacha ta`lim didaktikasining asoschilari Y.A.Komeniskiy va K.D.Ushinskiy tadqiqotlarida yoritilgan. Y.A.Komeniskiyning “Onalar maktabi” nomli asarida maktabgacha ta`limning maqsadi-atrof-muhit haqidagi oddiy bilimlarni o`zlashtirish, axloqiy odatlarni rivojlantirish va bolalarni maktab ta`limiga tayyorlash ekanligini ta`kidlab, bolalarga beriladigan

bilimlarning ilk dasturini belgilab berildi. Bola asosiy ta'lim tarbiyani maktabgacha bo'lgan yoshda egallaydi ya'ni, butun umri davomida olinadigan ta'lim tarbiya uchun poydevorni qo'yadi. Shuning uchun ham Komeniskiy talim va tarbiyaning boshlanishi maktabgacha yoshdadir, degan g'oyani doim ilgari surdi. K.D.Ushiniskiy maktabgacha ta'limning vazifasi aqliy salohiyat va nutq qobiliyatini rivojlantirishdan, ularni maktabga tayyorlashdan iboratdir-deb ta'kidlaydi.

Bunda u ko'rgazmalikka, mashg'ulotlarning qiziqarliligiga tayanish zarurligini uqtiradi. Ular qoldirgan qimmatli meroslarni o'qitish pedagoglari tomonidan maktab didaktikasini ishlab chiqishda foydalaniladi. Qadimda pedagoglar maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim olish huquqini – hayotni anglashga dunyoqarashni kengaytirishga, bilim, ko'nikma va malakalar huquqini kafolatlash lozim deb ta'kidlaydilar. Didaktik o'yinlar bilimlarning aqliy rivojlanishi va nutqning o'sishida, o'yin va tasviriy faoliyatlarni rivojlantirishda, atrofdagi voqealikka munosabatini shakllanishida muhim rol o'ynashini ko'rsatib o'tdilar. 20-asrning o'rtalarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash ehtiyoji tufayli maktabgacha ta'lim didaktikasi muammolarini keng tadqiq qilish jarayonlari avj oldi, bulardan asosiy maqsad har tomonlama yetuk, barkamol avlodni vatan koriga yaraydigan qilib tarbiyalashdir. Maktabgacha ta'lim didaktikasining rivojlanishida maktabgacha pedagogika sohasi bo'yicha olim A.P.Usova tadqiqotlarini ham ahamiyati benihoya kattadir. Unin ta'limotlarida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'yin, ta'lim, sensor tarbiya, pedagogik jarayonlarni va xalq amaliy ijodiyoti masalalarini ilmiy jihatidan asoslab beradi. U maktabgacha talimdagi o'quv jarayonlarini, ta'lim prinsiplari va metodlarni bolani har tomonlama rivojlanishdagi ahamiyatini ochib berdi. Usova "Bolalar bog'chasi" dasturini ishlab chiqqan olim hisoblanadi. Maktabgacha ta'limdagi qator muammolar, maktabgacha ta'lim tarbiya dasturida "Mashg'ulotlar orqali ta'lim berish" degan bo'limning ochilishiga sabab bo'ldi.

Didaktik ta'lim berishda albatta didaktik o'yinlarning ham ahamiyati kattadir. Didaktik o'yinlarning muhim elementlari bu qoidalardi.

Didaktik o'yinlar qoidalar asosida ishlab chiqiladi. Bu qoidalarga amal qilish o'yin mazmun mohiyatini tushunish demakdir. Didaktik o'yinlar ta'lim bilan bevosita bog'liq bo'lib, ta'lim berishda asosiy vositadir. Didaktik o'yin bu- maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning imkoniyatlari va qiziqishlariga mos keladigan ta'lim muhitini yaratish demakdir. Bunday o'yinlarni qo'llashdan maqsad, o'yinga passiv, ta'lim jarayonlariga befarq bo'lgan bolalarni jalb etishdir.

Didaktik o'yinlarni tashkillashtiruvchi tarbiyachilardan g'oyaviylik, ijodkorlik talab etiladi. Didaktik o'yinlar tarbiyachilarning maqsad va vazifalari o'tiladigan mashg'ulot mavzusiga to'g'ri kelishi joizdir. Didaktik o'yinlar bolalarning birgalikda o'ynab, o'z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishi, bir biriga ko'maklashish va o'rtog'ining g'alabasidan hursand bo'lishi kabi yaxshi, iliq munosabatlarni kurtak yozishiga yordam beradi. O'yinlar bola shxsinini sofdillik,

rostgo'ylik, mehribonlik, mas'uliyatlilik ruhida tarbiyalanishida asos bo'lib hizmat qiladi. Didaktik o'yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg'ulotda tarbiyachi tomonidan berilgan bilimlariga tayanadilar. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun sharoit yaratib beradi. Didaktik o'yinlarga kichik bolalar uchun "Rangiga qrab top", "Shakliga qrab top" kabi o'yinlarni o'tkazish mumkin. Katta guruh bolalari uchun "Ishchilar nimalar va qnday ishlarni bilishadi", Dehqonlar nimalar yetishtiradi-yu, bog'bonlar nimalar yetishtiradi, kabi savol javob tarzidagi o'yinlarni olib borishimiz mumkin. Didaktik o'yinlar bolalarni atrof muhit haqidagi bilimlarini mustahakamlashda, o'z shaxsiy tajribalari va mashg'ulotdan olgan bilimlarini mustahakamlashda, ularni qo'llay olishda, bolalardagi fikirlash qobiliyatlari, ijodiy kuchlarini rivojlantirishda qo'l keladi. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonini yengilroq qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariga mos qiziqarli o'yinda amalga oshiradigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o'zlashtiradilar. Didaktik o'yin kattalar tomonidan bolalarni aqliy, jismoniy, axloqiy rivojlanishini o'stirish maqsadida yaratiladi. Unda o'yin elementlari qancha ko'p bo'lsa, bolalarga ana shuncha quvonch bag'ishlaydi. Didaktik o'yinnig muhim tomoni uni o'tkazishdan ko'zga tutiladigan asosiy maqsaddir. O'yin g'oyasi bolalarda o'yinga bo'lgan qiziqishni orttiradi. O'tkazilgan o'yinlar natijasi bolalar va tarbiyachi tomonidan baholanishi, g'oliblikni qo'lga kiritgan bolalar esa albatta rag'batlantirilishi lozim.

Didaktik o'yinlar bolalarda aqliy faoliyatini o'sishiga yordam beradi. Bolalar fahm-farosatlari, topag'onliklari, diqqat va xotiralarini namoyish etadilar. Bularning hammasi bolalarni o'z kuchiga ishonchini oshirib, ularda "Men-konsepsiya" sini shakillantirishda ko'maklashadi, bola qalbini xursandchilik hissi bilan to'ldiradi, ular bundan o'zlari bilmagan holda ma'naviy qoniqish hosil qiladilar. Didaktik o'yinlarada o'yin mazmuni, g'oyasi, harakatlari va qoidalari o'zaro bir biri bilan bog'langan bo'lib hatto ulardan birortasi bo'lmay qolsa o'yin saviyasi buzilib qoladi. Didaktik o'yinlarni o'yin faoliyati sifatidagi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, tarbiyachilar bilar bolalar o'rtasidagi munosabatlari o'yin tarzida shakillantiriladi. Tarbiyachilar har doim o'yin qatnashchisi yoki tashkilotchisi bo'lib xizmat qiladi. Bolalar ko'pincha o'yin mazmuni bilan belgilanadigan va o'yin harakatlari talab etadigan biron-bir rol ni bajaradilar.

Ko'p hollarda didaktik o'yinlar bolalarning bilimlariga biron-bir yangiliklarni kiritmaydi, ammo uning afzalligi shundaki bolalardagi bilimlarni o'z maqsadlari manfaatlari yo'lida mohirona ishlatishiga yo'l ochib beradi. Kichik yoshdagi bolalarni aqliy faoliyatlarini turli tuman shakillalrini namoyon etishga, bilimlarini ishlata bilishga o'rgatadi. Didaktik o'yinni mazmuni shundan iboratki, "MTM ta'lim tarbiya dasturi" da bayon etigan bo'lib quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-buyumlar, ularning nomi, rangi, shakli, hajmi, sifati, va ishlatilishi to'g'risida bilimlar berish;

- mehnatning har xil turi va uning kishilar hayotidagi roli to`g`risidagi bilimlar;
- tabiat voqealari, narsalari, buyumlari,yil fasllari tog`risidagi bilimlar;
- dastlabki matematik tushunchalar:son, sanoq kattalik,shakil,vaqt va fazoviy tushunchalar berish.

Didaktik o`yinlar ularning ta`lim –tarbiyaviy vazifasi, mazmuni butun bolalar bog`chasining ta`lim va tarbiya dasturida har bir yosh guruhlari ajratib berilgan. Dasturda har bir yosh guruhining o`ziga xos ruhiy fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda didaktik tutgan o`rni va vazifasi, mazmuni o`tkazish uslublari belgilanib berilgan.Masalan 2yoshdan 3yoshgacha bo`lgan bolalar bilan o`tkaziladigan didaktik o`yinlardan asosiy maqsad- bolalarni ranglarni bir biridan ajratish farqlash va nomini aytishga o`rgatish, har xil o`lchamlar (katta,kichik)shakillarni (sharcha, kubcha) ko`rib va eshitib idrok etish,diqqatni mayda harakatlarni o`stirishda yordam beradi.Bundan tashqari guruhda bolalarni musiqa tovushlarini farq qilishga o`rgatish uchun musiqiy didaktik o`yinlar ham o`tkaziladi.Ikkinchi kichik guruhda esa didaktik o`yinlar maqsadlarda o`tkaziladi:bolalarda didaktik o`yinchoqlar bilan yakkama-yakka o`ynash ko`nikmasi yaratilishi, jamoa o`yinlarini tashkillashtirish,narsalarni faqat bir rangga qarab ajrata olish, katta-kichikligiga qarab farqlash; halqachalarni va kubchalarni muntazam shakilda terib,ulardan minorachalar yasash;tanish buyimlar tasvirlangan ikki, to`rt burchakli,olti burchakli kesma rasmlardan narsalarni farqlash nomini to`g`ri aytishga o`rgatish ko`nikmalari shakillantiriladi.O`rta guruh bolalarida eshitish, ko`rish, sezish, analizatorlari yordami bilan turli narsalar va ularni yasash uchun ishlatiladigan materialning xossalarini bilib olish, narsalarni tashqi ko`rinishiga qarab bir biriga taqqoslash,guruhlarga ajratishni o`rgatish vazifalariamalga oshiriladi.Yana didaktik o`yin davomida bolalar o`rtaga qo`yilgan masalalarni hal etishda sabr-matонатli bo`lishga, qiziquvchanlikka,diqqat-e`tiborlilikka odatlantirib boriladi.Musiqaviy didaktik o`yinlar orqali tovushlarni diqqat bilan tinglab,baland-pastligiga,ritmiga, tembriga,dinamikasiga qarab bir-biridan farq qila olishga o`rgatib boriladi.

Katta guruhda didaktik o`yinlar quyidagi vazifalarni hal etishni maqsad qilib qo`yadi:kuzatuvchanlik,narsalarni tekshira bilish,bir biriga taqqoslay olish,ularning belgilaridagi kichik farqlarni(rangi,shakli,katta-kichikligi, materiallarni seza bilish,narsalarning joylanishlari o`zgarishlarini)aytib bera olish kabi sensor qobiliyatlarni shakillantirish muhim ahamiyatga ega .Biron hayvon, o`simlik, transport ta`lim-tavsif qilinganda, ularni nomini topa bilish malakasini shakillantirish,bolalarni umumiy tasavvurini, buyumlarni umumiy belgilariga qarab guruhlarga bo`lish qobiliyatini rivojlantirish,so`z faolligini rivojlantirish va to`ldirish; qisimlardan yaxlit narsalar (kubiklar, mozaikalar,va boshqalarni)yasash malakasini o`stirish.Musiqaviy didaktik o`yinlarbi o`tkazish orqali tovushlarni bir-biridan farq qilishni o`rgatish,ritmik usulmi ajrata olish, ashullalar, cholg`u asboblari ovozining tembrini farq qilish,ovozning dinamikasini ajrata olish,uchun foydalanish kabi vazifalar

yo`lga qo`yiladi. Maktabga tayyorlov guruhida didaktik o`yinlar hamma yosh guruhlaridagi kabi alohida o`rin tutadi va bu guruhlarda didaktik o`yinlar orqali turlicha ta`lim-tarbiya beriladi. Didaktik o`yinlar bolani aqliy qobiliyatini o`stiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, o`ziga ishonchini oshiradi. Didaktik o`yinlarda tarbiyachi bolalarni faqat narsalarning nomi va ular nimaga kerakligi bilan tanishibgina qolmay, balki shu narsalarni shakli, rangi, katta-kichikligi fazoda tutgan o`rni haqida ham tanishtiriladi. Bola dunyoga kelib, voyaga yetishi, uchun ota-onaning o`rni va ahamiyati juda katta lekin mana shu bola aqilli, hushli, yetuk, yetuk komil inson bo`lib tarbiyalanishida butun jamiyatni mehnati kerak bo`ladi.

Adabiyotlar:

1. Kadirova, O. K. (2022). Boshlang'ich ta'lim rivojlantirish muammolari va istiqbollari. Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, 403(1), 18-19.
2. Кадилова, О. Х., Кадилова, З. З. (2022). Ўзбек терминологияси. Журнал филологических исследований, 1(2), 156-160.
3. Kadirova, O. K. (2022). Linguopoetics is an Important Research Field of Linguistics. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, 10(12), 756-759.
4. Kadyrova, Z. Z.; Kadyrova, O. Kh. (2022). Lithosonyms Used in the Works of Alisher Navoi. NeuroQuantology, 12(20), 1907-1913.
5. Kadirova, O. K. (2022). Use of the Neurolinguistic Programming Method to Achieve the Goals of the Educational Process. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, 10(12), 188-192.
6. Илёсов, Б. А., & Кадырова, О. Х. (2019). Поэзии А. Блока в узбекских переводах. in переводческий дискурс: междисциплинарный подход (pp. 133-138).
7. Kadyrova, O. K. (2021). Foundations of artistic synthesis in the literatures of the west and the east at the present stage. Innovative engineering and management research, 10(01), 227-232.
8. Кадилова, О. Х. (2021). Использование учебного перевода как один эффективных приемов обучения русскому языку как иностранному в средней школе. Современное образование и воспитание, 1(1), 289-294.
9. Kadirova, O. K. (2021). Comparative typological analysis of russian-uzbek literary relations in their historical development. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(12).
10. Кадилова, О. Х. (2022). Мотивы свободы и одиночества в поэзии Лермонтова и Усмана Насыра. Традиции и инновации в изучении и преподавании языков, 1(1), 173-176.

11. Musayeva, G. K. (2022). Some Aspects of Teaching the Russian Language in National Groups. *Global Scientific Review*, 10, 70-75.
12. Musayeva, G. K. (2022). Methodology of teaching the Russian language in Uzbek groups. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 522-527.
13. Musayeva, G. (2022). Rus tilini o'rganish ahamiyati va o'qitishda interfaol usullardan foydalanish ko'nikmalari. *Ta'lim fan va innovatsiya*, 22(6), 171-174.
14. Abdullaev PhD, A., & Ochilov, O. (2021). ACCOUNTING AND ANALYSIS OF INVESTMENTS UNDER ACTIVE INVESTMENT POLICY: NECESSITY, PURPOSE AND OBJECTIVES. *International Finance and Accounting*, 2021(2), 29.
15. Мирсаатов, Р. М., Очилов, О., Абдуллаев, Ж. Э. У., & Кенжаев, А. А. (2019). Устройство для определения шелконосности коконов без их взрезки. *European science*, (6 (48)), 30-36.
16. Usmonov, B. Z., Togayeva, G. S., & Davlatova, M. A. (2021). O'zgarmas koeffitsientli ikkinchi tartibli bir jinsli differentsial tenglamalarini o'qitishda matematik paketlarni o'rni. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 2181-1385.
17. Usmonov, B. Z., Togayeva, G. S., & Davlatova, M. A. (2021). Bir jinsli tor tebranish tenglamasi uchun i ichegaraviy masalani fure usulida yechishda matematik paketlarning roli. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 339-348.
18. Давлатова, М. А. (2022). Формирование логического мышления у учащихся начальных классов при решении экономических и статистических задач. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 194-198.
19. Mirxalilova, N. A., & Davlatova, M. A. (2022). TIMSS xalqaro baholash dasturida miqdor tushunchasi va uning turlari. *Academic research in educational sciences*, 3(9), 282-285.
20. Davlatova, M. A. (2022). Iqtisodiy va statistik masalalarni yechishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirish. *Academic research in educational sciences*, 3(12), 309-314.